

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**BAKDURDIYEVA QUNDUZ QUVONDIQ QIZI**

**O'ZBEK AN'ANAVIY ZARGARLIGIDA TRANSFORMATSION  
JARAYONLAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA)**

**07.00.07 — Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Bakdurdiyeva Qunduz Quvondiq qizi**

О‘zbek an’anaviy zargarligida transformatsion jarayonlar (Xorazm vohasi misolida).....3

**Бакдурдиева Кундуз Кувондик кизи**

Трансформационные процессы в узбекском традиционном ювелирном деле (на примере Хорезмского оазиса).....27

**Bakdurdiyeva Qunduz Quvondiq qizi**

Transformational processes in traditional Uzbek jewelry (as an example of the Khorezm oasis).....53

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of publications.....57

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**BAKDURDIYEVA QUNDUZ QUVONDIQ QIZI**

**O'ZBEK AN'ANAVIY ZARGARLIGIDA TRANSFORMATSION  
JARAYONLAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA)**

**07.00.07 — Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2024.2.PhD/Tar 1981 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida  
(<http://karsu.uz>) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali <http://www.ziynet.uz> manzillariga  
joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Matkarimova Sadokat Maksudovna**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Davlatova Saodat Tilovberdiyevna**  
tarix fanlari doktori (DSc), professor.

**Abidova Zaynab Qodirberganovna**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi**  
**Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot**  
**instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha ilmiy  
darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy Kengash huzuridagi ilmiy darajalar  
beruvchi kengashning 2025 yil "02" VII soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:  
230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-49; e-mail [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya matni bilan Qoraqalpog' davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish  
mumkin (330 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-  
uy. Tel.: (99861) 223-60-49; e-mail [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "07" VII kuni tarqatildi.  
(2025 yil "07" VII dagi 9 raqamli reestr bayonnomasi.)



**M.A.Karlibaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, tarix fanlari  
doktori (DSc), professor

**H.M.Otegenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, tarix  
fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**B.A.Koshanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy  
seminar raisi, tarix fanlari  
doktori, professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda xalqlarning integratsiyalashuvi, globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan bir paytda etnik va madaniy o'zlikni anglash, lokal madaniyatlar va milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni ilmiy asosda tadqiq qilish ustuvor ahamiyatga ega. Ayni paytda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda milliylikning ahamiyati o'sib, jahon xalqlari orasida o'z tarixi va madaniyatiga bo'lgan qiziqish keskin ortganligini ko'rish mumkin. Moddiy madaniyatning turli ko'rinishlari orasida an'anaviy zargarlik madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ma'naviy va madaniy hayot, shuningdek, estetik qarashlarni uyg'unlashtiradi.

Jahon antropologiyasi va zamonaviy etnologik tadqiqotlarda an'anaviy zargarlik etnik madaniyatning muhim belgisi sifatida, milliy o'ziga xoslik, moddiy va ma'naviy hayot va atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni o'zida namoyon etadigan ustuvor masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra, asosiy e'tibor zargarlik buyumlarining an'anaviy shaklini, badiiy estetik ahamiyatini tarixiy manbalar, sotsiologik so'rovlar natijasida ifodalash va zamonaviy globallashuv jarayonlariga moslashuvini o'rganishdir. Markaziy Osiyo xalqlari moddiy madaniyati masalasi jahonning yetakchi ilmiy markazlarida olib borilayotgan tadqiqotlarda asosiy o'rinni egallaydi. Mintaqa xalqlari zargarlik buyumlari shakllarining rivojlanishiga ijtimoiy jarayonlarning ta'siri, uning transformatsiya jarayonlari hamda boshqa jihatlarini o'rganish dolzarb muammolardan biridir.

Yangi O'zbekiston sharoitida xalq zargarligining rivojlanishi muammolarini tadqiq etish, tarixiy-etnologik tadqiqotlar hamda etnos madaniyatini o'rganish, uni kelajak avlod uchun qoldirish muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv sharoitida xalqning asosiy qadriyatlarini o'zida mujassam etuvchi an'anaviy madaniyatning qadr-qimmatini ortib bormoqda. Xalqning tarixi, tajribasi, an'analarning mohiyatini tushunish, madaniy me'yorlar, xulq-atvor stereotiplari, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar zamonaviy jamiyatning ma'naviy izlanishlarini oziqlantiradi, uni tartibga solishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Xorazm vohasi aholisi an'anaviy zargarligi moddiy hamda ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Shu bois, zargarlik mavzusi etnograflar, madaniyatshunoslar va san'atshunoslarda katta qiziqish uyg'otib, fanlararo yondashuv asosida zargarlik hunarmandchiligi tarixi, rivojlanishi va etnik guruhga xos asosiy xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda tarixiy-etnologik jihatdan tadqiq etish zaruratini tug'diradi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi "Moddiy madaniy meros ob'ektlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish" 269-II-sonli Qonuni, 2017-yil 15-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros boshqarmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi"gi PQ-2778-sonli Qarori, 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-son "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon va qarorlari, hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Huquqiy-demokratik jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonida milliy, adabiy, tarixiy va diniy qadriyatlar, milliy g'oya, estetik-badiiy tarbiya, san'at, moddiy va nomoddiy madaniy meros, milliy davlatchilik tarixini tadqiq etish" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbek an'anaviy zargarligi, xususan Xorazm vohasi aholisi an'anaviy zargarligi va uning transformatsion jarayonlari mavzusi hozirga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shu bois, ushbu muammoni tarixiy-etnologik jihatdan tadqiq qilish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqotning o'rganilish darajasi dissertatsiyaning birinchi bobida, muammoning manbashunosligi va tarixshunoslik tahlili ikkinchi paragrafida batafsil yoritilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Xorazm Ma'mun akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Xorazm ana'anaviy zargarligidagi transformatsion jarayonlarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** sifatida quyidagilar belgilangan:  
mavzuning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish;  
mavzuning manbashunosligi va tarixshunoslik tahlilini yoritish;  
Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot va unda hunarmandchilikning tutgan o'rnini tahlil qilish;  
Xorazm an'anaviy zargarlik buyumlarini tasniflash;  
Voha zargarlik buyumlaridagi semantik ifodalarni ochib berish;  
Xorazm vohasi aholisi zargarligi va uning transformatsion jarayonlarini yoritib berish;  
an'anaviy zargarlik hunarmandchiligida usta-shogirdlik an'alarini yoritish;  
zargarlik hunarmandchiligi buyumlarini ishlab chiqaruvchi ustaxonalarni turistik ob'ektga aylantirish orqali O'zbekistonda sayyohlikni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** Xorazm vohasi aholisining an'anaviy zargarligi va undagi transformatsion jarayonlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** Xorazm vohasi an'anaviy va zamonaviy zargarlik buyumlarining rivojlanishi, uning turlari, ular bilan bog'liq urf-odat marosimlar,

usta-shogird an'analari hamda transformatsiya jarayonlariga ta'sir qilgan omillar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiy izchillik, tarixiy-qiyosiy tahlil, strukturaviy-semantik va fanlararo yondashuv hamda sotsiologik so'rovnoma usullaridan foydalanildi. Shuningdek, zargarlik buyumlarining yasalish uslublari haqida xulosa chiqarish maqsadida badiiy va stilistik tahlildan ham foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Xorazm o'zbeklarining an'anaviy zargarligi tarixini o'rganish jarayonida vohaning shimoliy qismi hamda janubiy qismidagi zargarlik hunarmandchiligi an'analarning bir-biridan farq qilishi aniqlandi. Vohaning janubiy qismida islomgacha bo'lgan an'ana va urf-odatlarining ko'proq saqlanib qolganligi, transformatsion jarayonlar ham unga o'z ta'sirini o'tkaza olmaganligi qiyosiy tahlil asosida, tarixiy jarayonlar kontekstida ochib berildi;

tadqiqot jarayonida Xorazm zargarligi faqat mintaqa miqyosida yoki nafaqat qo'shni xalqlar (*turkman, tojik, qoraqalpoq va qisman qozoq xalqlari*) zargarligi taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqlikda va o'zaro bir-biriga ta'sir asosida rivojlanganligi, balki uzoq o'lkalar xalqlari (*jumladan, shimolda udmurtlar, chuvashlar, janubda afg'on va hind xalqlari*) zargarlik san'ati sohalarining rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi;

zargarlik hunarmandchiligi bilan bog'liq urf-odatlar (*sir tutish, oilada hunar o'rgatish, shogird tayyorlash, fotiha berish*) va xalq qarashlari, taqinchoqlardagi naqshlar o'z xususiyatlariga ko'ra geometrik (handasaviy), o'simliksimon (islimiy), zoomorf (hayvon shaklidagi), astral va antropomorf (odam shaklidagi) bezak-naqshlarining ramziy-semantik ifodalanishini tahlil qilish asosida zargarlik buyumlari, taqinchoqlar eng avvalo kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini belgilashga xizmat qilganligi dalillandi;

Xorazm vohasida *bodom oy, peshxalta, zulpi tillo, jamalak, avrak (arabak), taxya duziy, osma duziy, butun tirnoq, yarim tirnoq, shokila, tumor, o'q yoy duziy, isirg'a, kamar bog'i, pesh aviz, kalit bog'i* kabi an'anaviy zargarlik buyumlarining kamayib ketayotganligi, ba'zilar o'zining ijtimoiy ahamiyatini va ramziy-semantik yoki magik xususiyatlarini yo'qotib borayotganligi asoslab berildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqotda an'anaviy zargarlik hunarmandchiligini fanlar kesimida tadqiq etishning nazariy uslubiy jihatlari ishlab chiqilgan;

zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi ustaxonalarni turistik ob'ektga aylantirish orqali O'zbekistonda sayyohlikni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan takliflar berilgan;

tadqiqot davomida yig'ilgan tarixiy-etnografik materiallar va arxiv hujjatlari ma'lumotlari asosida davlat dasturlarining bajarilishi hamda o'zbek xalqi an'anaviy hunarmandchiligiga oid bilimlarni takomillashtirishda; xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi, san'at va badiiy hunarmandchilik muzeylarida yangi ekspozitsiya-fondlarini tashkil etishda va boyitishda; muzeylar tarixiy-madaniy merosini targ'ib qilishda; muzeylarga xorijiy va mahalliy turistlarning tashrifini kengaytirish va shu asosda O'zbekiston respublikasida turizmni rivojlantirishda;

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Tarixiy savol” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda asos bo‘lgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqotda tarix va zamonaviy etnologiya fanida tan olingan yondashuv va usullarga tayangan holda Xorazm vohasi an‘anaviy zargarligi va uning transformatsiyasiga oid manbalar (muzey eksponatlari, noyob fotosuratlar), tarixiy adabiyotlar, dala etnologik materiallari, chuqurlashtirilgan intervyulardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning ilmiy jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilganligi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishidan olingan xulosalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan zargarlik hunarmandchiligini rivojlantirishning amaliy jihatlarini o‘rganish hamda maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati o‘zbek xalqi tarixiy va madaniy merosini asrash, muzey ekspozitsiyalarini boyitish, etnoturizmning omiliga aylantirish, milliy mafkurani rivojlantirishda maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga, shuningdek, o‘zbek xalqi an‘anaviy hunarmandchiligiga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek an‘anaviy zargarligida transformatsion jarayonlar (Xorazm vohasi misolida) mavzusi bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Dissertatsiya ishi doirasida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalari “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasining 2023-2024-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan: tadqiqot natijalari, dissertatsiyaning xulosalari hamda tavsiyalaridan muzeylar ekspozitsiyalarini tizimlashtirishda; san‘at va badiiy hunarmandchilik muzeylarining yangi ekspozitsiya-fondlarini tashkil etishda va boyitishda; muzeylar tarixiy-madaniy merosini targ‘ib qilishda; muzeylarga xorijiy va mahalliy turistlarning tashrifini kengaytirish va shu asosda O‘zbekiston respublikasida turizmni rivojlantirishda foydalanilgan (xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 2024 yil 11 noyabrdagi №01-46-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalardan O‘zbekistonda an‘anaviy zargarlik sohasining taraqqiyoti, bu sohada kechgan transformatsion jarayonlarning amaliy ahamiyati hamda zargarlik hunarmandchilik sohasi va zargarlik turlarini rivojlantirishning amaliy jihatlarini ommalashtirish, milliy qadriyatlarimizni yoshlarga o‘rgatish, ularning hunar egallashga bo‘lgan intilishlariga undaydigan targ‘ibot tadbirlarni tayyorlashga xizmat qildi;

Voha aholisi an‘anaviy zargarligida qoraqalpoq va turkman xalqlari zargarligi an‘analarining o‘ziga xos milliy hamda etnik xususiyatlarining aks etishi tadqiq qilingan. Qolaversa o‘zbek xalqi tarixiy va madaniy merosini asrash, muzey ekspozitsiyalarini boyitish, etnoturizmning omiliga aylantirish, milliy mafkurani rivojlantirishda maqsadli davlat dasturlarining bajarilishi hamda o‘zbek xalqi an‘anaviy hunarmandchiligiga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo

munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2024 yil 8 noyabrdagi №14-07-1745-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur dissertatsiya ishidagi ilmiy xulosa va tavsiyalardan Qo'mitaning konferensiya, seminar davra suxbatlari, shuningdek madaniy-gumanitar sohalaridagi tadbirlarini tashkil etish uchun foydalanildi;

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Tarixiy savol" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda tadqiqot natijalaridan Xorazmning Xiva, Urganch, Qo'shko'pir, Shovot tumanlari hamda shaharlarida qadimdan rivojlangan zargarlik hunari, uning o'ziga xos qadimiy va zamonaviy ko'rinishlari, zargarlik buyumlarining asrlar davomida transformatsion jarayonlarga uchraganligi, Xorazm vohasi an'anaviy zargarlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasidagi usullar, zargarlik hunarmandchiligi bilan bog'liq urf odatlar va xalq qarashlari, zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi ustaxonalarning turistik ob'yektga aylantirish orqali O'zbekistonda (Xorazm vohasi misolida) sayyohlikni rivojlantirish istiqbollari o'ldirilgan ilmiy-nazariy xulosalaridan foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 28-noyabrdagi 02-30-1225-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu material o'zbek xalqi madaniy merosi va ularning an'anaviy zargarlik buyumlari haqidagi bilimlarni kengaytirishga xizmat qildi.

Xorazm vohasida *bodom oy, peshxalta, zulpi tillo, jamalak, avrak (arabak), taxya duziy, osma duziy, butun tirnoq, yarim tirnoq, shokila, tumor, o'q yoy duziy, isirg'a, kamar bog'i, pesh aviz, kalit bog'i* kabi an'anaviy zargarlik buyumlarining kamayib ketayotganligi, ba'zilar o'zining ijtimoiy ahamiyatini va ramziy-semantik yoki magik xususiyatlarini yo'qotib borayotganligi O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Tarixiy savol" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanildi. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024 yil 28 noyabrdagi № 02-30-1225-sonli ma'lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta (2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqolalar e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib tadqiqot qismi 149 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot

natijalarining ishonchliligi, aprobatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Xorazm an’anaviy zargarligida transformatsion jarayonlar mavzusining nazariy-metodologik asoslari, manbashunosligi va tarixshunosligi”** deb nomlangan. Uning *“Mavzuning nazariy-metodologik asoslari”* nomli birinchi paragrafida Xorazm an’anaviy zargarligi mavzusi bilan bog‘liq nazariy-metodologik yondashuvlar, o‘rganilgan manba va ilmiy adabiyotlar xususiyatlari tahlil qilingan<sup>1</sup>.

Y. G‘ulomovning zargarlik san’ati haqidagi ishlari O‘zbekistonning qadimiy hunarmandchiligi va xalq amaliy san’ati, jumladan, zargarlik madaniyatini o‘rganishga qaratilgan<sup>2</sup>.

K. Shoniyozov, E. Rtveladze, A. Asqarovlarning zargarlik sohasi haqidagi tadqiqotlari Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston hududida qadimdan rivojlanib kelgan zargarlik an’analarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu ishlarda O‘zbekistonning turli mintaqalarida, jumladan, Xorazm vohasida topilgan zargarlik buyumlari chuqur o‘rganilgan hamda ushbu tadqiqot ishida ulardan nazariy asos sifatida foydalanilgan<sup>3</sup>.

M.V. Sazonova o‘z tadqiqotida Xorazm zargarlik amaliy san’atining tarixi, uslublari va o‘ziga xosliklari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Muallif Xorazm zargarligi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy holatni, balki, zargarlik buyumlarining yoki taqinchoqlarning ijtimoiy xususiyatiga ko‘ra, voha aholisining etnik qiyofasini, vohada kechgan etnik jarayonlarni o‘zida aks ettirganligini ta’kidlaydi.

M.V. Sazonova Xorazm vohasi aholisini ikki guruhga bo‘lib o‘rgangan: birinchisi, ichida ma’lum farqlarga qaramay, taka-turkmanlar, yomutlar, sariqlar kabi yirik etnik birliklarni o‘z ichiga olgan Janubiy Xorazm o‘zbeklari; ikkinchisi, qoraqalpoqlar va g‘arbiy qozoqlar etnik guruhlarini ichiga olgan Shimoliy Xorazm o‘zbeklari guruhlaridan iborat<sup>4</sup>.

Dissertatsiya birinchi bobining ikkinchi paragrafi *“Mavzuning manbashunosligi va tarixshunoslik tahlili”* deb nomlanib, ushbu bo‘limda, Xorazm vohasi an’anaviy zargarlikning rivojlanish bosqichlari tarixi bo‘yicha mavjud

---

<sup>1</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: Наука, 1948. – С. 435.; O‘sha muallif. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., – Л.: АН СССР, 1948; Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма. – М.: Наука, 1971; O‘sha muallif. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1974; Сазонова М.В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. – М.: Наука, 1978. – 95 с.; Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969; O‘sha muallif. Под небом Хорезма. – М.: Мысль, 1973. – 160 с.; Лобачева Н.П. Свадебный обряд хорезмских узбеков // Краткие сообщ. Института этнографии им. Миклухо-Маклая. – Вып. 34. – М., 1960. – С. 39-48 O‘sha muallif. Формирование новой обрядности узбеков. – М., 1960; O‘sha muallif. Различные обрядовые комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С. 298–329; Сухарева О.А. О культуре мусульманских святых в Средней Азии // Труды Института истории и археологии АН УзССР. В. 2-х томах. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1951. Т. 2. – С. 159–178; O‘sha muallif. Ислам в Узбекистане. – Ташкент: АН УзССР, 1960. – 240 с.

<sup>2</sup> Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1959. – 326 б.

<sup>3</sup> Шониёзов К. Ўзбек халқининг шакилланиш тарихи. – Тошкент: Фан,

2001. – 464 б; Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент: 2005. – 286 с; Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ. – 690 б.

<sup>4</sup> Сазонова М.В. Украшения узбеков Хорезма // Сборник МАЭ. – Л., 1970. Т. XXVI. – С. 136.

yoʻzma manbalar maʼlumotlari hamda mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar mazmuni tahlil qilinib, mavzu tarixshunoslik nuqtai-nazaridan koʻrib chiqilgan va arxiv hujjatlari hamda shu voqealar guvohi boʻlgan shaxslar bergan maʼlumotlar tarixshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Xorazm vohasi aholisining zargarlik amaliy sanʼati tarixi uzoq tarixga ega hamda zargarlik buyumlari ijtimoiy-maishiy turmushning ajralmas qismi sifatida deyarli barcha manbalarda oʻz aksini topgani holda bu mavzuga bagʻishlangan maxsus manbalar mavjud emas. Zargarlik buyumlari haqidagi maʼlumotlar ilk bora zardushtiylikning muqaddas “Avesto” kitobida uchraydi. Unda muqaddas hisoblangan koʻpgina jonzotlar yoki buyumlar tasviri aks etgan tumorlar eslatiladi<sup>5</sup>. Shuningdek, “Avesto”da oltin eng ulugʻ maʼbudlar, ayniqsa, quyosh xudosi Mitraning ramzi sifatida ham tilga olinadi<sup>6</sup> va unda Ardivisura Anaxita doimo oltin taqinchoqlar bilan eslatib oʻtilgan<sup>7</sup>.

Rim tarixchisi Pliniy (I asr) saklar yurtida (Toshkent vohasi) koʻp uchraydigan nodir, qimmatbaho tosh – *feruza* haqida yozib qoldirgan. Undan turli taqinchoqlar, zeb-ziynat buyumlari yasashda foydalanilgan<sup>8</sup>.

Ahmoniy shohlarining Suzadagi saroyida bitilgan yozuvlarda ham Baqtriya, Soʻgʻdiyona va Xorazmdan olib kelinadigan *oltin* va boshqa *nodir metallar*, *qimmatbaho toshlar* haqida maʼlumotlar uchraydi. Xususan, ushbu yozuvlardan Baqtriyadan *oltin*, Soʻgʻddan *lojuvard* va *sanaubar toshi*, Xorazmdan *axshayna* nomi bilan yuritiladigan tosh keltirilib, saroy qurilishida foydalanilganligini keltirib oʻtish mumkin<sup>9</sup>. Manbalarda taʼkidlanishicha, nafaqat Xorazm balki, Markaziy Osiyo va Oʻrta Sharq davlatlarida Xorazm oʻzining yuksak darajada qadrlangan *feruza toshi* va undan tayyorlangan mahsulotlari bilan mashhur boʻlgan. Bu mahsulot vohaning oʻrta asrlardagi savdo mollari ichidagi qimmatli mollardan biri sifatida ham katta oʻrin tutgan. Tadqiqotlarning dalolat berishicha, *feruza* konlari Xorazmning Sultonuvays togʻlarida koʻp uchraydi<sup>10</sup>.

Ilk oʻrta asrlarda Oʻzbekiston hududidagi foydali qazilmalar haqida Xitoy manbalarida ham koʻp maʼlumotlar mavjud. Syuan Szyanning 645-yildagi Oʻrta Osiyo sayohatlari kundaligi”da va “Shimoliy xonadon tarixi”da Badaxshonning *oltin*, *laʼl* va *lojuvardlari*, Xorazmning *qora tuzi*, Zarafshonning quyi oqimidan olinadigan 5 xil rangdagi *tuzlar*, 751-yilga taalluqli manbada esa Raxon (Fargʻona)dagi *simob*, *temir* va *oltin* konlari haqida maʼlumotlar keltiriladi<sup>11</sup>.

Jampiqqalʼa yodgorligi atroflarida olib borilgan arxeologik va geologik togʻ-kon ishlari davrida bu yerda oʻrta asrlarga oid *feruza* va *serdolik* olingan gʻor va

<sup>5</sup> Авеста в русских переводах (1861—1996) / Сост., общ. ред., примеч., справ. разд. И.В. Рака. – СПб.: Журнал «Нева» – РХГИ, 1997. Яшт, XIX, фрагарды 59, 60. – С. 355, 356.

<sup>6</sup> Авеста в русских переводах (1861—1996) / Сост., общ. ред., примеч., справ. разд. И.В. Рака. – СПб.: Журнал «Нева» – РХГИ, 1997. Яшт, XXXI, фрагарды 112, 125. – С. 301, 304.

<sup>7</sup> Авеста в русских переводах (1861—1996) , 1997. Яшт, XXX, фрагарды 126-129. – С. 197-198.

<sup>8</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Ташкент: АН УзССР 1953. – С. 11.

<sup>9</sup> Дьяков М.М. Очерки истории древнего Ирана – М.: Наука, 1961. – С. 108; уана қarang: Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Ташкент, 1953. – С. 10.

<sup>10</sup> Маньлов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья: Археолого-топографическое исследование Султануиздага: дисс. кандидата исторических наук: 07.00.00. – Нукус, 1972. – 253 с.

<sup>11</sup> Массон М.Е. К истории горного дела. – Тошкент., 1953. – С. 14, 19.

quduqlarning juda ko'p izlari aniqlangan. Bu o'rta asrlar (XII-XIV asrlar) shahridan olingan topilmalar orasida *feruza* ma'danlari izlari mavjud bo'lgan yarim tayyor buyumlar ko'plab uchragan<sup>12</sup>.

Sultonuvays tog' tizmalaridagi Aqto'v makoni, miloddan avvalgi IV-II asrlarda va milodiy X-XIV asrlarda, Achchiq tog' tepaligi X-XIII asrlar boshlarida, Shayx Jalil tog'i XII-XIV asrlarda, Zangi bobo makoni antik va Xorazmshoh Anushtaginlar davrida (XI-XIII asrlar boshi) faoliyat yuritgan feruza konlari va uni qayta ishlovchi markazlar bo'lgan. Ba'zi tarixchi olimlar yozma manbalar ma'lumotlariga tayangan holda o'rta asrlarlarda Xorazmdagi marjon toshlar boshqa hududlardan keltirilgan xom ashyoga asoslangan bo'lsa kerak deya ta'kidlaydilar<sup>13</sup>. Shu jihatdan olganda, Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy tarmoqlaridan birida joylashgan Xorazm vohasi orqali antik davrlardan boshlab, to Oltin O'rda davlati parchalangan XV asrgacha Sharqiy Yevropa hamda Janubiy Sibir hududlariga turli hududlarda ishlab chiqarilgan marjon taqinchoqlar hamda mazkur buyumlar uchun xomashyo mahsulotlar yetkazib berilgan<sup>14</sup>. Arxeologlar N.Y. Yusupov, Y.P. Manilovlarning "Sulton Uvaysdagi tog' kon ishlarining o'rganilishi" nomli maqolasida Sulton Uvays tog'idagi konchilik ishlari to'g'risidagi yozma va geologik manbalar ilmiy tahlillar asosida mujassamlashtirilgan ma'lumotlari bu fikrni rad etadi<sup>15</sup>.

Sharq musulmon dunyosida mineralogiya fani rivojida Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya" asari muhim o'rin tutadi<sup>16</sup>. Buyuk qomusiy olim bu asarida nafaqat qimmatbaho toshlar haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tgan, balki, ushbu zargarlik buyumlarining inson hayotidagi o'rni, ularning davolash xususiyatlari hamda qanday ramzlarga ega ekanligi haqida ham to'liq ma'lumotlar berib o'tganligi bilan qimmatlidir.

XIX-XX asr boshlari tarixshunoslik tadqiqotlarida ham O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, Xorazm vohasi aholisi ijtimoiy-maishiy turmushida, ma'naviy dunyoqarashida zargarlik hunarmandchiligi sohasining hamda zargarlik buyumlarining tutgan o'rni masalasi o'z aksini topgan. Jumladan, sharqshunos

<sup>12</sup> Манылов Ю.П., Кдырниязов М.Ш. Городище Джампык кала // АП. Вып.2. – Ташкент, 1984. – С. 77-78.

<sup>13</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Т.: Ид-во АН УзССР 1953. – С.11.

<sup>14</sup> Пташникова И.В. Бусы древнего и раннесредневекового Хорезма // Тр. ХАЭЭ. Т. I. 1952. – С. 105-118; Трудновская С.А. Украшения позднеантичного Хорезма по материалам раскопок Топрак-Кала. // Тр. ХАЭЭ. Т. I. 1952. – С. 119-134; Гудкова А.В. К изучению раннекердерских бус (VII-VIII вв.) // Вопросы антропологии и материальной культуры Кердера. – Ташкент, 1973. – С. 125-137; Вишневская Н.Ю. Ремесленные изделия Джигербента (IV в. до н.э. – начало XIII в. н.э.). – М.: Восточная литература, 2001. 175 с.; Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.) // ТХАЭЭ. Т. IX. – М.: Наука, 1976. – 254 с.; Полубояринова М.Д. Украшения из цветных камней Болгара и Золотой Орды. – М.: Ин-т археологии АН СССР, 1991. – 112 с. Памятники исламской культуры в собрании Национального музея Республики Татарстан. Каталог. / Ред.-сост. Л.И. Саттарова. – Казань: Заман, 2023. – 256 с.: ил.; Полубояринова М.Д. Украшения из цветных камней Болгара и Золотой Орды. – М.: Ин-т археологии АН СССР, 1991. – 112 с.; Уразимова Т.В. Декоративно-прикладное искусство каракалпаков. Ювелирное искусство // Academy. 2022, №108, август. – С. 52-54; Саттарова Л. "Узбекский след" в коллекциях татарского ювелирного искусства Национального музея Республики Татарстан // Сборник материалов VII Международного Конгресса WOSCU «Культурное наследие Узбекистана – фундамент нового ренессанса» Самарканд, 5–8 ноября 2023 года. – Ташкент, 2024. – С. 373-381.

<sup>15</sup> Юсупов Н., Манылов Ю.П. К изучению горного деле Султануиздага. // Вестник ККФАН Узб.ССР. – Нукус, 1968. №2. – С. 61-67.

<sup>16</sup> Абу Райхан Беруни. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минерология) / Перевод Беленицкого. – Л., 1963. – С. 196.

A.A. Semyonov O'rta Osiyo musulmon aholisi ma'naviy dunyoqarashida qimmatbaho toshlarning aks etishi masalasiga o'z e'tiborini qaratgan<sup>17</sup>.

M.F. Gavrilov O'rta Osiyo xalqlari hunarmandchiligi sohalari usta-hunarmandlari uchun nizom vazifasini o'tagan "Risola"da har bir sohaning o'ziga xos tartib-qoidalarini tahlil qilgan<sup>18</sup>.

Zargarlik hunarmandchiligi sohasi tarixini o'rganishda arxeologik va etnografik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Bu sohada tadqiqotlar 1930-yillar oxirida tashkil qilingan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tashkil qilingandan so'ng juda keng ko'lamda olib borila boshlagan. Bu ekspeditsiya xodimlari deyarli yarim asr mobaynida Xorazm vohasida mavjud arxeologik yodgorliklarda olib borilgan arxeologik-etnografik tadqiqotlar natijasida juda boy moddiy-manbaviy ma'lumotlarni to'pladilar. Ammo, bu ekspeditsiya tarkibida faoliyat olib borgan bir nechta tadqiqotchigina aynan Xorazm zargarlik hunarmandchiligi va san'ati sohasiga oid maxsus tadqiqotlar olib borganlar, xolos. Jumladan, I.V. Ptashnikova, S.A. Trudnovskaya, E.E. Nerazik, N.Y. Vishnevskaya, M.V. Sazonova, A.V. Gudkova kabi tadqiqotchilarning mazkur mavzuga oid tadqiqotlari muhim ahamiyatga egadir.

I.V. Ptashnikova o'zining antik va ilk o'rta asrlar davri Xorazm taqinchoqlari haqidagi maqolalarida Xorazm vohasidagi yodgorliklardan topilgan taqinchoqlarni ilk bora tasniflab, taqinchoqlar tayyorlangan xom ashyo manbalarini nafaqat o'rgangan, balki hududlar miqyosida qiyosiy tahlil ham qilgan<sup>19</sup>.

Ekspeditsiyaning yana bir a'zosi S.A. Trudnovskaya ham Tuproqqal'a yodgorligidan topilgan turli taqinchoqlar hamda bezak buyumlar asosida so'nggi antik davr Xorazm vohasi zargarlik sohasi taraqqiyotiga oid qimmatli ma'lumotlarni berib o'tgan<sup>20</sup>.

Bu borada etnograf olimlar ham ko'pgina tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, M.V. Sazonova Xorazm vohasi aholisining zargarlik buyumlarini, xususan, taqinchoqlarini etnografik jihatdan tadqiq qilgan<sup>21</sup>.

Mazkur ekspeditsiyaning mahalliy a'zolaridan biri I.J. Jabborov ham zargarlik hunarmandchiligi sohasi tarixini etnografik jihatdan tadqiq qilgan<sup>22</sup>.

N.G. Borozna o'z tadqiqotlarida zargarlik buyumlarining tumor sifatida yovuz ruhlardan asrovchi buyum ekanligini tavsiflagan hamda ular bilan bog'liq turli xil inonch-e'tiqodlar haqida batafsil ma'lumotlar bergan<sup>23</sup>.

---

<sup>17</sup> Семенов А.А. Из области воззрений мусульман Средней и Южной Азии на качества и значение некоторых благородных камней и минералов // Мир ислама, Т. I, №3. – СПб, 1912. – С.293-321; Семенов А.А. Воззрения мусульман на значение благородных камней и минералов // Мир ислама. Т. I. №1. – СПб, 1912. – С. 293-321.

<sup>18</sup> Гаврилов М.Ф. Рисоля сартовских ремесленников: Исследования преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Тип. при канц. ген.-губернатора, 1912. – С. 59.

<sup>19</sup> Пташникова И.В. Бусы древнего и раннесредневекового Хорезма // Тр. ХАЭЭ. Т. I. 1952. – С. 105-118.

<sup>20</sup> Трудовская С.А. Украшения позднеантичного Хорезма по материалам раскопок Топрак-Кала. // Тр. ХАЭЭ. Т. I. 1952. – С. 119-134.

<sup>21</sup> Сазонова М.В. Украшения узбеков Хорезма // Сборник МАЭ. – Л., 1970. – Т. XXVI. – С. 113–142.

<sup>22</sup> Джаббаров И.М. Ремесло узбеков южного Хорезма в конце XIX – начале XX в. // Труды Института этнографии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. – Л., 1971. Т. 97. – С. 72-146.

<sup>23</sup> Борозна Н.Г. Некоторые материалы об-амулетах-украшениях населения Средней Азии. – М., 1975. – С. 281.

D.A. Faxretdinova o'zining ilmiy izlanishlari davomida o'zbek an'anaviy zargarligini viloyatlar kesimida tavsiflashga, shuningdek, transformatsion jarayonlar va ishlab chiqarish texnikasi borasida qimmatli ma'lumotlar keltirgan<sup>24</sup>.

Markaziy Osiyo xalqlarining zargarlik buyumlari va taqinchoqlari haqida tadqiqotchi N.Sicheva umumiy tadqiqotlar olib borgan bo'lib, bu tadqiqotda ham qisman Xorazm zargarlik san'ati mavzusiga to'xtalib o'tilgan<sup>25</sup>.

S. Bulatovning O'zbekistonning xalq hunarmandchiligi va zargarlik san'ati masalasiga bag'ishlangan kitobida, asosan turli urf-odatlar va marosimlarda ishlatiladigan zargarlik buyumlari xususida so'z yuritilgan<sup>26</sup>. N.Sadiqova tadqiqotlarida ipak matolar bilan birga zargarlik buyumlarining ijtimoiy turmush darajasini belgilash masalasiga to'xtalib o'tgan<sup>27</sup>.

Tadqiqotchi F.Sharipov o'z tadqiqotida qadimgi Xorazm hunarmandchiligi xususan, zargarlik hunarmandchiligining qadimgi davrlardan boshlab shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini, uning saqlanishi masalasini tahlil qilib, bu masalada Xorazm maktabi ham alohida emas, balki boshqa markazlar (turkman, qoraqalpoq va qisman tojik, qozoq) bilan aloqada rivojlanganligiga alohida e'tibor qaratgan<sup>28</sup>.

A.Hakimov, B.Nodir, Z.Nosirovalar hammuallifligida chop etilgan tadqiqotda o'zbek xalqi zargarlik san'atining taraqqiyoti, qadimgi davrda urf bo'lgan taqinchoqlar turlari xususida so'z yuritilib, tadqiqotchi Xorazmning qadimiy savdo yo'llarida joylashgani nafaqat madaniy almashuvlarga ta'sir ko'rsatgan, balki bu geografik holat zargarlik buyumlarining dizaynida ham sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarganligini alohida ta'kidlagan. Xullas, tadqiqotchi fikricha zargarlik buyumlaridagi turli naqsh va bezaklar hududning savdo-sotiq va madaniy aloqalarining kengligi bilan bog'liqdir<sup>29</sup>.

Hozirgi kunda bu mavzuda tadqiqotchilardan Elmira Gyul samarali faoliyat olib bormoqda. Uning tadqiqotlarida O'zbek zargarlik san'ati genezisi, rivojlanish bosqichlari, bu sohada kechgan transformatsion jarayonlar hamda ularning xususiy jihatlari ochib berilgan. Tadqiqotchi mazkur asarlarida Xorazm zargarlik san'ati an'analari turkman, tojik va qoraqalpoq xalqlari amaliy bezak san'ati, xususan zargarlik san'ati taraqqiyotiga katta ta'sir qilganligi borasida xulosalarga kelgan<sup>30</sup>.

<sup>24</sup> Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент, 1988. – С. 204.

<sup>25</sup> Сычева Наталья. Ювелирные украшения народов Средней Азии и Казахстана XIX-XX веков из собрания Государственного музея искусства народов Востока. / Traditional Jewellery from Soviet Central Asia / Альбом на русском и английском языках. Перевод на английский язык Елены Бессмертной (статья) и Александры Ильф. Цветная фотосъемка Эдварда Стейнерта. – М.: Советский художник, 1984. – 180 с.

<sup>26</sup> Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 384 б.

<sup>27</sup> Садыкова Н. Национальная одежда узбеков Хорезма XIX–XX вв. – Ташкент: Шарк, 2007. – 32 с., 21 илл.

<sup>28</sup> Sharipov F. Qadimgi Xorazm va uning hunarmandchiligi. – Nukus: Qoraqalpoq Davlat nashriyoti, 2020. – 145 b.

<sup>29</sup> Hakimov A., Nosirova Z., Nodir B. O'zbek xalq amaliy san'ati. O'quv qo'llanma / – Toshkent: LESSON PRESS, 2019. – 132 b.

<sup>30</sup> Гюль Эльмира. Сады небесные и сады земные: вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов: [монография] / Эльмира Гюль. – М.: ИД Марджани, 2013. – 208 с.; уана uning: Зороастрийская символика в узбекском текстиле XIX – начала XX века: от предметности к абстрактности // Terra artis. Искусство и дизайн. 2022. №2. – С. 71–81; Ювелирное искусство Хорезма (К проблеме этнокультурных параллелей) // Sanat. 01/04/2002. Выпуск №2. [https://sanat.orexca.com/2002-rus/2002-2-2/history\\_art3-7/](https://sanat.orexca.com/2002-rus/2002-2-2/history_art3-7/); К вопросу о генезисе амулетниц-тумаров // [http://www.kyrgyz.ru/articles/library/elmira\\_gyul\\_k\\_voprosu\\_o\\_genezise\\_amuletnits-tumarov/](http://www.kyrgyz.ru/articles/library/elmira_gyul_k_voprosu_o_genezise_amuletnits-tumarov/); Диалог культур в искусстве Узбекистана (античность, средневековье). – Ташкент: Изд-во «PRINT-S» совместно с «Mir INFORM», 2005. – 208 с.; Ўзбекистон анъанавий санъати атамалари. Бадий энциклопедия. // «Ўзбекистон маданий мероси» муаллифлик туркуми: Энциклопедия / Эльмира

Xorazm zargarlik san'ati mavzusida O.S. Qambarova samarali tadqiqotlar olib borgan. Uning monografiya va maqolalarida Xorazm zargarlik san'ati haqidagi ma'lumotlar aks etgan. Uning fikriga ko'ra, Xorazm zargarlik san'ati qo'shni mintaqalar xalqlari zargarlik san'ati bilan o'zaro bog'liqlikda taraqqiy etgan bo'lib, bir qator o'ziga xos jihatlarga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan<sup>31</sup>.

B.F. Dadamammedov, A.Ibragimov, A.Mamedov, N.Sadiqova, A.K. Matrasulov, Sh.K. Shoyoqubov, B.B. Davlatov, M.Chariyev, Y.Raxmonovalar ham Xorazm zargarlik san'ati mavzusida tadqiqot ishlarini olib borib, ushbu masalani atroflicha ochib berganlar<sup>32</sup>.

Bulardan tashqari qoraqalpoq tadqiqotchisi D.A. Kudaybergenova "Qoraqalpoq zargarlik buyumlari: rivojlanish dinamikasi, semantik mohiyati" nomli tadqiqotida qoraqalpoq xalqi zargarlik buyumlarining va taqinchoqlari shakllanishi va taraqqiyotida Xorazm zargarligining o'rni beqiyos bo'lganligini qayd etgan. Shu bilan birga, qoraqalpoq xalqi zargarlik buyumlarining semantik

---

Гюль. – Тошкент: Zamon-press-info nashriyot uyi, 2023. – 272 б.; Gyul Elmira, Hejzlarová Tereza. Amulet as Jewel, Jewel as Amulet Uzbek, Tajik, and Karakalpak Amulet Cases Using the Example of Museum Collections. *Annals of the Náprstek Museum*. Prague: National Museum, 2022, 43(1). – P. 27-51.

<sup>31</sup> Камбарова О.С. Ювелирные искусства Узбекистана // Наука, образование и культура. 2019. №6 (40). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuvelirnye-iskusstva-uzbekistana>; yana uning: Генезис украшений Хорезма // Наука, образование и культура. 2021. №3 (58). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/genezis-ukrasheniy-horezma>; Эволюция пробирования драгоценных металлов // Наука, образование и культура. 2020. №4 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsiya-probirovaniya-dragotsennyh-metallov>; The art of jewelry-making in ancient Khorezm // Евразийский научный журнал. 2017. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-art-of-jewelry-making-in-ancient-khorezm>; Ювелирное искусство древнего Хорезма // *Sanat*. 01/10/2009. Выпуск №4. [https://sanat.orexca.com/2009-rus/2009-4-2/oydin\\_kambarova/](https://sanat.orexca.com/2009-rus/2009-4-2/oydin_kambarova/).

<sup>32</sup> Dadamuxamedov B.F. XIX – XXI asr boshlari O'zbekiston zargarlik maktablarining mahalliy xususiyatlari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 54 b.; Ibragimov A. Xorazm zargarlik tarixi. [Elektron resurs]: // <https://khivamuseum.uz/uz/xorazm-zargarlik-tarixi>; Мамедов А. Из истории изучения бус средневекового Хорезма // Ахинжановские чтения – 2024: материалы международной научной конференции студентов и молодых ученых (г. Алматы, 24–26 апреля 2024 г.). Алматы: Институт археологии им. А.Х. Маргулана, 2024. – С. 118-122; Садыкова Н. Национальная одежда узбеков Хорезма XIX–XX вв. – Ташкент: Шарк, 2007. – 32 с., 21 илл.; Матрасулов А.К. Своеобразие ювелирного искусства Хорезма // Молодой ученый. – 2013. № 12 (59). – С. 709-710; Узбекское народное декоративно-прикладное искусство [Альбом / автор-составитель Ш.К. Шоёқубов] – Ташкент: O'zbekiston, 2009. – 135 с.: цв. ил.; Давлатов Б.Б. Ювелирное искусство Хорезма. *Modern scientific research international scientific journal*, 2023, 1(2). – С. 291-295; Чарыев М. Хорезмские ювелирные украшения в Государственном музее Туркменистана // Сборник материалов VII Международного Конгресса WOSCU «Культурное наследие Узбекистана – фундамент нового ренессанса» Самарканд, 5–8 ноября 2023 года. – Ташкент, 2024. – С. 103-109; Рахманова М.М., Рахманова Ю.М. Хоразм заргарлик мактабининг ўзига хос хусусиятлари хақида айрим мулоҳазалар // Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси, 2017 (44) 3. – Б. 63-65; Rakhmanova Y. Ideas about peculiarities of jewelry in Khorezm oasis // *Zamonaviy fan ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari ilmiy elektron jurnali*. 02-04-2018. – P. 56-59.

mohiyati Xorazm zargarlik buyumlari semantikasi bilan bir xil ekanligini ham alohida ta'kidlab o'tgan<sup>33</sup>.

O'zbek an'anaviy zargarligida transformatsion jarayonlar masalasiga bir qator xorij tadqiqotchilari ham to'xtalib o'tganlar. Jumladan, islom san'ati tadqiqotchisi S.Leyla Diba tomonidan nashr qilingan "Turkman zargarligi" nomli to'plamida turkman milliy zargarlik san'atining aynan Xorazm zargarligi bilan uzviy bog'liqligi borasida yakuniy xulosaga kelingan. To'plam Marshall va Merilin R. Volfning zargarlik buyumlari kolleksiyasiga bag'ishlangan hamda to'plamda mazkur mavzuga oid turli mualliflarning maqolalari o'z aksini topgan. Undagi maqolalarda eng qadimgi davrlardan Xorazm zargarlik buyumlari yasalishi va ularning semantikasi evolyutsiyasi haqida so'z yuritilgan. Umuman to'plamdagi bir qator maqolalar jahondagi mashhur muzeylar mutaxassislari tomonidan yozilgan bo'lib, Xorazm zargarlik san'ati tarixini o'rganishda juda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>34</sup>. Bir so'z bilan aytganda, Xorazm an'anaviy zargarligida transformatsion jarayonlar mavzusi hali maxsus tadqiqot ob'ektiga aylanmagan mavzulardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Xorazm an'anaviy zargarligining shakllanishi, rivojlanishi va zargarlik buyumlarida aks etgan semantik ifodalar**" deb nomlanib, uning "*Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot va unda zargarlik hunarmandchiligining tutgan o'rni*" deb nomlangan birinchi paragrafida Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, xonlikda hunarmandchilik sohasining shakllanishi, taraqqiyoti, unda zargarlik sohasining tutgan o'rni va semantikasi masalasi yoritilgan.

O'rta asrlar hunarmandchilik rivojining yuksak davri hisoblanib<sup>35</sup>, Xiva xonligida hunarmandchilikning turli sohalari keng rivojlangan edi<sup>36</sup>. Hunarmandlar shahar va qishloqlarda faoliyat yuritib, qishloq hunarmandlari, asosan, aholi talab va ehtiyojidadagi mahsulotlarni ishlab chiqarganlar. Xonlikda rasmiylashtirilgan hujjatlarning aksariyat katta qismida ustalar nomiga hunar turi birga qo'shib ko'rsatib o'tilgan<sup>37</sup>. Ushbu manbalarga asoslanib, XVIII asrning ikkinchi yarmi –

<sup>33</sup> Kudaybergenova D.A. Haykel – qoraqalpoq xalqi ayollari bezanish buyumi // "Tamaddun nuri" ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-ba'diy jurnal. 2020-yil, 2-son (27). – B. 30-32-bb.; O'sha muallif. Qoraqalpoq ayollarining bezanish buyumlari // "Ilm sarchashmalari" ilmiy-uslubiy jurnal, 2020. – №6. – B.33-35; Qoraqalpoq hayal-qizlari ta'ginshaqlarini semantikalik ahamiyati // O'zR FA QQB "Axborotnomasi" jurnali. 2021, №3. 109-113-bb.; Функциональность и разновидность украшений шашбау // Вестник ККО АН РУз, №4, 2022. – С. 92-95; К вопросу о типологии накосных украшений каракалпачек // Вестник Ош ГПУ им. А.Мирсабекова. №2 (20), 2022. – С. 66-72; Қорақалпоқ аёллари соч безаниш буюмларининг ўрганилиш тарихи // XXI asrda ta'lim va texnologiya innovatsiyalari paradigmasidagi Renessans, (1), 2022. – B.232–233; Qoraqalpoq zargarlik buyumlarini nomlashda semantik yondoshuv // QarDU Xabarlar ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. 2023 2/2 (58). – B. 113-116; Qoraqalpoq libosini bezashda tangalardan foydalanish // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti "Axborotnomasi" jurnali, 2023. –№3 (61). – B.193-195; Ювелирное украшения каракалпаков в фокусе трансформации семейных обрядов // Вестник Казахского Национального университета. Серия: История. 2023. №4 (111). – С. 149-157; Qoraqalpoq zargarlik buyumlari: rivojlanish dinamikasi, semantik mohiyati. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2024. – 56 b.

<sup>34</sup> Diba, Layla S. Turkmen jewelry: silver ornaments from the Marshall and Marilyn R. Wolf collection / Layla S. Diba; with contributions by Stefano Carboni a. Jean-François de Lapérouse. – New York: Metropolitan museum of art; New Haven; distributed by Yale univ. press, cop. 2011. – XIII, 248, [3] pp.

<sup>35</sup> Харитонович Д.Е. Ремесло. Цехи и миф // Жизнь города и деятельность горожан. – М.: Наука, 1999. – С. 118.

<sup>36</sup> Иванин М. Хива и река Амударья // Туркестанский сборник. – СПб., 1873. Т. 50. – С. 49.

<sup>37</sup> Юлдашов М. XIX аср Хива давлат хужжатлари. – Тошкент, 1960. Т. II. – Б. 401; Шамансурова А. Интересные материалы о ремесленных организациях в Хиве XIX века // Общественные науки в Узбекистане.

XIX asrning 70-yillarida Xiva xonligidagi kasb-hunarlarining muayyan turlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shu o'rinda turli kasb-hunarlar haqida muhim ma'lumotlarga ega risolalar va undagi ma'lumotlari muhim o'rin tutadi<sup>38</sup>.

Asosan qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilikda mehnat unumdorligi past edi. XIX asrning birinchi yarmida Yevropada erishilgan mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar xonliklarga kirib kelmagan, kelganlari ham sanoqli edi. Xiva xonligi hunarmandchiligining rivoji bevosita qishloq xo'jaligi va savdo bilan bog'liq edi. Qishloq xo'jaligi hunarmandchilikning turli tarmoqlariga xom ashyo etkazib bergan. Mamlakatning turli markazlari esa ichki va tashqi tranzit savdo rivojlangan manzillar hisoblangan. Ularda amalga oshirilgan savdoda, uning shaklidan qat'iy nazar, xonlikda ishlab chiqarilgan hunarmandchilik mahsulotlari muhim o'rin tutgan. XIX asr boshlarida xonlikning tashqi savdo aloqalari natijasida xonlik hududiga tayyor fabrika mahsulotlarining kirib kelishi ayrim hunarmandchilik turlari taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

XIX asrning birinchi yarmi Xorazm hunarmandchiligining yuksalgan davri bo'lgan.

1830-1840 yillarda Xiva xonligida rivojlangan hunarmandchilik sohalari orasida zargarlikni "oltin va kumush yasash mahorati" deb atashgan<sup>39</sup>.

1850-1860-yillarda Xivada mahalla masjidleri orasida hunarmandlar nomini olgan masjidlar bo'lgan, shu jumladan, 9 ta hovlini o'z ichiga olgan Qilichbay zargara masjidi tilga olinadi. 1860-yili Xiva hunarmandlari ro'yxatiga 12 ta zargar kiritilgan<sup>40</sup>.

XX asr boshlarida Buxoroda 400 nafargacha zargar bo'lganligi o'sha davr mualliflarining asarlarida qayd qilingan<sup>41</sup>.

XIX asr 60-yillarida 12 nafar zargar bo'lsa, XX asr boshlarida ularning soni 60 nafarga yetgan<sup>42</sup>.

XIX asrning 60-yillarida xonlikning Xiva shahrida 12 ta zargarlik do'koni bo'lib<sup>43</sup>, U.Bobojonov, B.Mirshomilov, A.Davletov, D.Xo'janioyoz, usta Karim va boshqa ko'plab xivalik zargarlar faoliyat olib borganlar<sup>44</sup>.

Sovet davrida sovetlashtirish, unifikatsiyalash (bixillashtirish) kabi mafkuraviy sabablar, shuningdek sanoatlashtirish, hunarmandlarning bitta korxonaga va sohaga birlashib ishlashi hunarmandchilik taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Hunarmandchilikning ko'p turlari deyarli unutila boshlandi. Hunarmandchilikda

---

– Tashkent, 1965. – №10. – С. 62-65; Каталог среднеазиатских жаловонных грамот из фонда Института востоковедения им. Абу Райхана Беруни АН РУз. – Виттенберг: Университет, 2007. – С. 115;

<sup>38</sup> Рисола-и қассобчилик. Ичан қалъа музей қўриқхонаси архив фонди инв. № 4838 қўлёзма. 3 варақ.; Бисмиллоҳ муза ва кафшдўзлик. инв. № 4838 қўлёзма. 2 варақ.; Рисола-и дехқончилик. инв. № 4838 қўлёзма. 3 варақ.

<sup>39</sup> Иванин М.Н. Хива и река Аму дарья. – СПб., 1873. – С. 49.

<sup>40</sup> Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. – М., 1940. – С. 37.

<sup>41</sup> Ремпель Л.И. Далекое и близкое. Страницы жизни, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухары. – Ташкент, 1981. – С. 241.

<sup>42</sup> Абдуллаев Т., Фахретдинова Д., Ҳақимов А. Маъданга битилган қўшиқ. Ўзбекистон халқ санъати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 70.

<sup>43</sup> Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – Б. 303.

<sup>44</sup> Ҳақимов А.А., Акилова К., Косаковская И., Алиева С., Алиева З., Баратова Ш. Атлас центральноазиатского художественного ремесла и торговли. Том I. – Ташкент, 1999. – Р. 32.

davomiylilik muammolari bilan bog‘liq mahalliy hunarmandchilik markazlari va maktablarining kelajagi tobora yo‘qolib ketishiga olib keldi. Sanoatlashtirish natijasida yangi zavod fabrika mahsulotlarining ko‘plab keltirilishi va ishlab chiqarilishi nafaqat hunar turi, balki ishlab chiqarish mahsulotlarining shakli va sifatini ham tubdan o‘zgartirdi.

Xorazm zargarlik bezaklari o‘zining turlari ko‘pligi, hashamdor bezalishi, ishlanish texnologiyasi bo‘yicha boshqa hududlardan farq qiladi. Xorazmda XX asr boshlarigacha *tojduzi, duoduzi, manglayduzi, manotduzi, osmaduzi, kalitbog‘i, yarimtirnoq, butuntirnoq, bodomoy* kabi taqinchoqlar keng tarqalgan. Har bir zargarlik biyumi, undagi shakl va bezaklarda ramziy ma‘no ifodalangan<sup>45</sup>.

XX asr ikkinchi yarmida va undan keyin asta-sekin zargarlik buyumlarining ko‘rinishi o‘zgarib, oddiy shakllarga o‘tgan. Asosiy materialni kumush metali tashkil qilgan. Qolaversa, Xivalik zargarlar, asosan, yoqut, firuza, mayda munchoqlar va rangli oynali sariq misdan foydalanishgan.

XX asr oxirida A.Babajonov, M.Seitov, K.Zergerlar mashhur xivalik zargarlar hisoblangan va tanazzulga yuz tutgan hunarmandchilikni qayta tiklash yo‘lida qator tadbirlarni amalga oshirdilar.

XXI asr boshlariga kelib Xorazm vohasida zargarlarning soni ko‘payganligi kuzatiladi. Ulardan Shomurod zargar, Botir, Rajab usta, Alisher Sobirjonov, Temur Sobirov, Azamat zargar, Urganchda arman millatiga mansub Ramazon, Ibrohim, Xivada Jasur, Islom, Azamat kabi mashhur usta zargarlarni keltirib o‘tish mumkin. Hozirda Xorazm zargarlari 2 yo‘nalishda: mahalliy uslubda, ya‘ni zargarlik unutilib borayotgan an‘analarni qayta tiklash; an‘anaviy-zamonaviy uslubda ya‘ni zargarlik buyumlari yaratish ustida ijod qilmoqdalar<sup>46</sup>.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi “*Xorazm zargarligi: shakllanishi, rivojlanishi va transformatsiyasi*” deb nomlanib, unda Xorazm vohasida an‘anaviy zargarlik hunarmandchiligining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari hamda bosqichlari, asrlar davomida bu sohadagi transformatsion jarayonlar masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida o‘rganilgan materiallar o‘ziga xosligidan kelib chiqib metodologik asosi ta‘minlangan va strukturaviy yondashuv asosida tarixiy, etnografik va san‘atshunoslikka oid ma‘lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, semantik, tarixiy-genetik, tarixiy-taqqosiy uslublar orqali Xorazm vohasi an‘anaviy zargarlik hunarmandchiligi transformatsiyasi turli tarixiy jarayonlar kontekstida ilk bora quyidagicha ochib berilgan:

1-bosqich – Hunarmandchilik va uning sohalaridan biri sifatida zargarlik sohasining dinamik tarzda rivojlanish davri (eng qadimgi davrlardan – milodiy IV asrgacha bo‘lgan davr);

2-bosqich – Antik va rivojlangan o‘rta asrlar davri (IV – XVI asrlar);

<sup>45</sup> Абдуллаев Т., Фахридинова Д., Хакимов Ф. Маъданга битилган кўшик. Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1986. – Б. 152.

<sup>46</sup> Sotsiologik so‘rovnomalar natijalari, 2023-2025-yillar.

3-bosqich – Xiva xonligining tashkil topishi va zargarlik hunarmandchiligining dinamik tarzda rivojlanish davri (XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davr);

4-bosqich – Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar davri (1873-1990 yillar);

5-bosqich – Mustaqillik davri (hunarmandchilik faoliyatida tiklanish davri – 1991-yildan hozirgi kungacha).

Hozirgi davrga kelib zargarlik hunarmandchiligi va amaliy san’atida transformatsion jarayonlar yuz berib, turli xil yangi naqshlar, elementlar qo‘llanila boshlandi hamda zargarlik bilan shug‘ullanayotgan ustalar hozirgi avlod didiga mos nafis zargarlik buyumlarini tayyorlab, unda qadimgi va hozirgi zamonaviy dunyoqarash aks etgan zargarlik san’atining o‘ziga xos simbiozi shakllanganligini ko‘rish mumkin.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi “*Xorazm an’anaviy zargarlik buyumlari va ulardagi semantik ifodalarning aks etishi*” deb nomlanib, unda Xorazm an’anaviy zargarlik buyumlari, ularning turlari, semantik ifodalari, turli davrlarda sohada ro‘y bergan o‘zgarishlarning aks etishi hamda ijtimoiy-maishiy turmushdagi o‘rni masalalari yoritilgan.

XIX asrda Xorazm an’anaviy zargarlik buyumlarini qo‘llanish funksiyasiga ko‘ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

I. Boshga taqiladigan taqinchoqlar: *isirg‘a* (quloq), *aravak* (burun), *o‘qyoyduzi*, *yarimtirnoq*, *butuntirnoq*, *bodomoy* (chakka), *osmaduzi*, *qanot osma*, *manglayduzi*, *tojduzi* (peshona), *taxyaduzi*, *tangaduzi*, *davoduzi*, *qoshinna*, *jig‘a* (do‘ppi), *jamalik*, *laskokil*, *zulfitilla* (soch);

II. Bo‘yin-ko‘krakka taqiladigan taqinchoqlar: *singsila*, *tumor*, *shokila* kabilar;

III. Qo‘lga taqiladigan taqinchoqlar: bilakuzuklar - *yapaloq bilakuzuk*, *bodomcha bilakuzuk*, *ilonboshbilakuzuk*, *baqabosh bilakuzuk*; uzuklar - ko‘zli uzuk (ko‘zi gavhar, yoqut, dur va boshqa qimmatbaho toshlar va shishadan yasalgan); *ko‘zsiz uzuk* (naqshli va naqshsiz); *nikoh uzugi* (odatda nikohdan so‘ng taqiladi); *muhr uzuk* (ko‘z o‘rnida muhr bo‘ladi);

IV. Belga taqiladigan bezak buyumlari: *kalit bog‘i*, *pesh xalta*, *kamar bog‘i* kabilar;

V. Boshqa har xil turdagi zargarlik buyumlari kiradi.

Zargarlikda har bir buyum, undagi shakl, bezak o‘zining semantik ma’nosiga, ramziy ifodasiga ega. Xorazm an’anaviy zargarlik buyumlarida naqshlar o‘z xususiyatlariga ko‘ra: *geometrik* (*handasaviy*), *islamiy* (*o‘simliksimon*), *zoomorf* (*hayvon shaklidagi*), *astral* (*osmon jismlari shaklidagi*), *antropomorf* (*odam tana azolari shaklidagi*) guruhlariga bo‘linadi<sup>47</sup>. Ko‘chmanchi xalqlar amaliy san’atida ornitomorf (parrandalarga xos) deb nomlangan naqshlar ham keng tarqalganligini ko‘rish mumkin<sup>48</sup>. Zargarlik buyumlaridagi o‘simlik yoki geometrik naqshlar

<sup>47</sup> Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. – Ташкент, 2005. – С. 12.

<sup>48</sup> Богословская И. Қорақалпоқ нақш санъатида зооморф унсурлар // Сан’ат. 2009. №2. 16-бет.; Yana qarang: Чепелевская Г.Л. Сузани Узбекистана. – Ташкент, Гос. изд-во. худ, лит. УзССР. 1961.

tasvirida real predmetlar dunyosi yashirin bo‘lib, ularda bizni o‘rab turgan dunyo haqida u yoki bu tasavvurlar o‘z ifodasini topgan<sup>49</sup>.

Xivadagi Ichan qal‘a muzey qo‘riqxonasi eksponatlari orasida ayollarning turli xil naqshlar ishlangan an‘anaviy zargarlik buyumlari saqlanib qolgan. Xususan: *bodom oy, peshxalta, zulpi tillo, jamalak, avrak (arabak)*, Xiva kelinchaklarining bezak buyumlari sirasiga kiruvchi *taxya duziy, osma duziy, butun tirnoq, shokila, tumor, o‘q yoy duziy, isirg‘a, kamar bog‘i, pesh aviz, kalit bog‘i* shular jumlasidandir<sup>50</sup>. Xonlik zargarlari tomonidan yasalgan buyumlar 1870-yilda “Xiva xoni xotinlarining zeb-ziynatlari” nomi ostida Parij ko‘rgazmasida namoyish etilgan<sup>51</sup>. Ushbu ko‘rgazma Xiva zargarlik buyumlarining yuksak sifatini dunyo miqyosida namoyish qilishga imkon yaratgan.

Dissertatsiyaning “**Xorazm zargarligida usta-shogirdlik an‘analari va sohaning O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari**” nomli uchinchi bobi “*Xorazm zargarligida usta-shogirdlik an‘analari*”ga bag‘ishlangan birinchi paragrafida voha aholisi zargarligida usta-shogirdlik an‘analarining o‘ziga xos jihatlari, hududiy hususiyatlari, zargar-ustalar ijtimoiy turmush tarzida ro‘y bergan o‘zgarishlar kabi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Xorazmda xalq hunarmandchiligini tashkil etish borasida shakllangan an‘analarni o‘rganishda turli hujjatlarning ahamiyati kattadir. Qozixonalarda rasmiylashtirilgan bu hujjatlarda jamiyatning turli tabaqa vakillari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar, ularning majburiyatlari va huquqlari aks etgan. Xiva xonligida bu hujjatlar davlat tili hisoblangan o‘zbek tili va fors tilida ham rasmiylashtirilgan. Ulardan tadqiqot ishida unumli foydalanilgan: “Bay-i bat batat” – yer, uy-joy, savdo rastalari, ustaxonalar shu kabi mulklarning oldi-sotdisi rasmiylashtirilgan hujjat; “Bayi joyz” – mulkni sotib olish, sotish huquqini beradigan ijara turi rasmiylashtirilgan hujjat; “Ibro” – o‘z shikoyat, talab va da‘volaridan voz kechish; “Xatti ijara” – yer, do‘kon, pul kabi mulklarni ijaraga olish rasmiylashtirilgan hujjat; “Xatti madiyun” – qarzdorlik tilxatlari; “Rivoyat”lar – musulmon qonunchiligi bo‘yicha chiqarilgan fatvolar; “Vaqfnoma” – diniy yoki xayriya muassasalari, masjid, qabriston, madrasalar foydasiga ajratilgan mulklar rasmiylashtirilgan hujjatlar tashkil etadi<sup>52</sup>.

Hunarmandchilikning ijtimoiy tuzulishida usta, xalfa va shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo‘lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalarini uning nizomi sifatidagi “Risola”da belgilab berilgan va risolalar O‘rta Osiyo hududida, jumladan, Xiva xonligida hunarmandchilikni tashkil etish tartibi va an‘analarini yoritgan. Shu bilan birga har bir kasbning o‘z rahnamosi, ya‘ni piri va “Risola”si, avloddan avlodga o‘tuvchi odatlari va qadiryatlari ham bo‘lgan. Masalan, ish

<sup>49</sup> Давлатова С. Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида). – Тошкент, 2018. – Б. 260.; Qarang: Андреев М.С. Орнамент горных таджиков верховьев Амударьи и Памира. – Ташкент, 1928. – 41 с.;

<sup>50</sup> Ичан калъа давлат музей қўриқхонаси фонди. ГХМЗ КП 5459; ГХМЗ КП 5903.

<sup>51</sup> Вамбери А. Очерки жизни и права на Востоке. – СПб., 1877. – С. 63.

<sup>52</sup> Урунбаев А., Хорикава Т., Файзиев Т., Джураева Г., Исогай К. Каталог Хивинских казийских документов XIX - начала XX в. – Ташкент-Киото, 2001. – С. 3.

\* Risola – arab tilidan kelib chiqqan bo‘lib, xat, nozil etilgan, targ‘ibot, hunarmandchilikka bag‘ishlangan asar, risola ma‘nosini anglatadi (Гаврилов М.Ф. Рисоля сартовских ремесленников: Исследования преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Тип. при канц. ген.-губернатора, 1912. – С. 1.).

boshlashdan oldin usta pirini yodga olib undan madad so‘rash, shogirdiga fotiha berish kabi odatlarga amal qilingan. Tadqiqot jarayonida olib borilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalarida zargarlik hunarining piri Dovud payg‘ambar ekanligi asoslangan<sup>53</sup>.

O‘rta Osiyo xonliklaridagi kabi Xiva xonligida ham hunarmandlar orasida “usta” maqomi an‘anaga ko‘ra avloddan avlodga o‘tib kelgan va hunarmand ustalarni tayyorlashda “ustoz-shogirdlik” maktabi alohida ahamiyat kasb etgan.

XVI–XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining barcha hududlarida hunarmandchilik aholi xo‘jalik faoliyatining asosini tashkil etgan sohalaridan biri edi. Xonlikda usta-hunarmandlarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Shogirlarni tayyorlash borasidagi an‘analar katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda ustalar muhim o‘rin tutgan.

O‘rta Osiyo xonliklarida, xususan, Xiva xonligida ota-onalar farzandini ma‘lum bir hunar turini egallashi uchun usta oldiga olib borib, bu haqida kelishuv shartnomasini tuzgan. Hujjatda mazkur hunarni egallash uchun necha yil vaqt ketishi ko‘rsatilishi shart bo‘lgan. Usta o‘z hunarini o‘rgatish davomida shogird xizmatidan ham foydalangan. Odatda, usta shogirdiga 13-14 yoshidan boshlab 6-8 yil davomida o‘z hunarini o‘rgatgan. Shogird ustaning barcha ko‘rsatmalariga amal qilishi shart bo‘lgan. Usta ham o‘z navbatida shogirdning kelajagi uchun mas‘ul hisoblangan. Ustozning shogirdiga nisbatan talabchan, qattiqqo‘l bo‘lishi, kerak vaqtda rag‘batlantirishi yoki jazolashi shogirdning mohir hunar sohibi bo‘lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etgan. Usta shogirdiga hunar o‘rgatish jarayonida shogirdini ma‘naviy jihatdan ham tarbiyalab borgan. Masalan, ustalar shogirdidan pokizalik, rostgo‘ylik, ish vaqtida chalg‘imaslik, noma‘qul ishlarga yaqin yo‘lamaslik, halollik va ustoz ruxsatisiz biror ishga qo‘l urmaslikni qat‘iy talab qilganlar<sup>54</sup>.

Shogird belgilangan vaqt davomida hunarmand ustadan muayyan hunar turining sir-asrorlarini o‘rganganidan so‘ng, usta shogirdga bu hunar turi bilan mustaqil shug‘ullanish uchun fotiha bergan<sup>55</sup>. Agar, usta o‘z farzandiga hunarini o‘rgatsa, bu shogird “usta” maqomini olishida “fotiha berish” marosimini o‘tkazishi shart bo‘lmagan<sup>56</sup>. Xorazm zargarlari orasida fotiha berish marosimi ba‘zi o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan.

Ayrim manbalarda hunarmandlarning fotiha berish bilan bog‘liq bo‘lgan bunday yig‘ilishlari juma kunlari o‘tkazilganligi haqida ma‘lumot beriladi. An‘anaga muvofiq, hunarmandlar uyushmasining taklif etilgan barcha a‘zolari juma namozidan so‘ng masjidan chiqib, “usta” maqomini oluvchi hunarmandning

---

<sup>53</sup> Sotsiologik so‘rovnoma natijalaridan, 2023-2024 yillar.

<sup>54</sup>

Булатов С., Мухторов А. Ганчкорлик санъати. – Тошкент: Муסיқа, 2006. – Б. 11.

<sup>55</sup> Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов Узбекистана конец XV – XVI в. – Ташкент, 1985. – С. 45.

<sup>56</sup> Dala yozuvlari. Xiva shahri, Shixlar mahallasi Iskandarov Baxtiyor, 2023 yil.

uyiga borganlar va shogird ularni choy, shirinliklar va osh bilan mehmon qilgan<sup>57</sup>. Keyin uyushma boshlig'i "kalontar" yoki uyushma a'zolaridan biri "kamarbasta" an'anasini o'tkazgan va bu hol shogirdga "usta"lik maqomining berilishining rasmiy ifodasi hisoblanadi.

Etnografik dala so'rovlariga ko'ra, hozirgi kunda ham ushbu an'anaga ba'zi ustalar qattiq amal qiladilar va uni to'liq saqlab qolganlar. Hunar sirlarini o'rganib bo'lgan shogird uyida palov pishirib ustozini chaqiradi. Ustoziga shogirdi tomonidan chopon to'n kiygizib yana ko'nglidan chiqqan miqdorda pul ham beriladi. Shundan so'ng fотиha olgan shogird endi mustaqil ustaxona ochib faoliyat yuritishi mumkin bo'ladi. Ba'zi hunarmand ustalar esa, shogirdiga belgilangan oylik miqdorini to'lashi evaziga hunar sirlarini o'rgatadi, xolos<sup>58</sup>.

Bobning "*Zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi ustaxonalarni turistik ob'ektga aylantirish orqali O'zbekistonda sayyohlikni rivojlantirish istiqbollari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida zargarlik ustaxonalarni turistik ob'ektga aylantirish, bu orqali sayyohlikni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi hukumatining olib borayotgan siyosati masalalari yoritilgan.

Hukumat rejaları tasdiqlangan dasturlar doirasida sifatli va raqobatbardosh zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarish ustaxonalarni turistik zonaga aylantirish, tarmoqqa chet el investitsiyalarini faol jalb etish, raqobatbardosh va sifatli zargarlik buyumlarini tayyorlashda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek respublika zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilangan<sup>59</sup>.

Zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi ustaxonalarni sayyohlik ob'ektlariga aylantirish shartli ravishda bir necha asosiy yo'nalishga ajratish mumkin: madaniy, kognitiv (ma'rifiy) va biznes (tijorat). Birinchi madaniy va ma'rifiy (kognitiv) yo'nalish doirasida sayohat maqsadi: muzeylarga, o'quv dasturlariga, mahorat darslariga tashrif buyurish, qimmatbaho metallar va zargarlik buyumlari ishlab chiqarish ustaxonalariga tashrif buyurishdan iboratdir. Ikkinchisi tijorat (biznes) yo'nalishi hisoblanib, bu yerda sayohatning maqsadi zargarlik ko'rgazmalari va kim oshdi savdosi uylariga tashrif buyurish, zargarlik buyumlarini sotib olish uchun boshqa mamlakatlarga tashrif buyurishdan iboratdir.

Ta'kidlash joizki, o'tgan davr mobaynida zargarlik ustaxonalarining turistik ob'ektlarga aylantirishga qaratilayotgan ulkan e'tibor samarasida O'zbekiston turli nufuzli xalqaro reytinglarga ko'tarilib, mamlakatimiz nomi jahon ommaviy axborot vositalarida tez-tez tilga olinmoqda. Bu O'zbekistonning imidjini mustahkamlash va ommalashtirishga xizmat qiladi.

---

<sup>57</sup> To'rayeva S.R. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi – Tarix fan nom. diss. – Toshkent, 2010, 128-varaq; Po'latov O. O'zbek milliy hunarmandchiligidagi ijtimoiy munosabatlar va an'analar // Yosh sharqshunoslar anjumani, materiallar to'plami. – Toshkent. 2023. – B. 161.

<sup>58</sup> Dala yozuvlari. Usta zargar Yusupov Fozilbek. Urganch shahar, 2023.

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 23-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-104-sonli qarori.

## XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Tarixiy va etnologik tadqiqotlarni o'rganish asosida hamda nazariy-uslubiy jihatlariga tayangan holda Xorazm an'anaviy zargarligining o'tmishda va bugun ham zamonaviy sanoat bilan bir qatorda jamiyat madaniyati va iqtisodiyot konyukturasida muhim o'rin tutishi ko'rsatib berildi.

2. Xorazm vohasi aholisi an'anaviy zargarligi va uning transformatsiya jarayonlari alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Hozirgi kunda etnologiya fani insonlarning kundalik munosabatlarida etnik madaniyat mazmuni hamda tez o'zgaruvchan hayot muhitidagi muvozanatni saqlash muammolari asosiy tadqiqot predmetlari hisoblanadi. Shuningdek, Xorazm vohasi an'anaviy zargarligi tarixini nazariy-uslubiy jihatdan o'rganishda Sobiq ittifoqning barcha millat va xalqlarini bir tahlitda rivojlantirish konsepsiyasi asosida yozilgan ilmiy ishlardan butunlay voz kechishga yoki ularga tarixiy tanqidiy yondashish va bu borada izlanishlar olib borgan g'arb olimlarining tadqiqotlari tahlilga tortildi.

3. XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida jamiyat siyosiy va iqtisodiy hayotining turli sohalari qatorida an'anaviy hunarmandchilik ham rivojlana boshlagan va o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. XVIII asr o'rtalarida mamlakatda kuzatilgan inqiroz natijasida tanazzulga uchragan hunar turlari XIX asr boshlariga kelib qayta tiklangan, mahsulotiga talab pasaygan hunar turlari o'z ahamiyatini yo'qota borgan va ba'zilar o'zgarishga yuz tutgan. Bu davrda Xiva xonligida 100 dan ortiq hunar turlari mavjud bo'lib, ularga bevosita tayyor mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va o'z faoliyati orqali hunarmandlar savdo qilish, mahsulot ayirboshlah bilan shug'ullangan kasb-hunar egalarini kiritish mumkin.

4. Xiva an'anaviy hunarmanchiligi taraqqiyoti avvalo etnik jarayonlar va iqtisodiy hayotning boshqa sohalari holati bilan bog'liqlikda rivojlanib borgan. Hududning qo'shni davlatlar bilan madaniy munosabatlari rivojlangan hamda xorijiy davlatlar bilan ham iqtisodiy aloqalar yangicha asosda davom ettirilgan bo'lib, natijada yuz bergan emigratsion va migratsion jarayonlar faollashib, xonlik hududida kelib o'rnashgan turli xalqlar vakillari orqali mahalliy aholi yangi hunar turlari va mahsulot ishlab chiqarish usullari bilan tanishib borgan. Natijada an'anaviy Xiva hunarmandchiligi boyib borgan. Shu bilan birga zargarlik hunarmandchiligining taraqqiyoti ichki, tashqi va tranzit savdo bilan uzviy bog'langan holda kechgan. Ichki savdoda hunarmandlar mahsuloti bilan savdo faol amalga oshirilgan, bu mahsulotlarning ayrim turlari mamlakatdan tashqariga olib ketilgan savdo mollarining asosini tashkil qilgan.

5. Xorazm vohasi zargarligi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy holatni, balki, Xorazm vohasi aholisining etnik qiyofasini, vohada kechgan etnik jarayonlarni o'zida aks ettirgan. Jumladan, Xorazm vohasi aholisi ikki guruhga bo'linib, birinchisi, ichida ma'lum farqlarga qaramay, taka-turkmanlar, yomutlar, sariqlar kabi yirik etnik birliklarni o'z ichiga olgan Janubiy Xorazm o'zbeklari, ikkinchisi, qoraqalpoqlar va g'arbiy qozoqlar etnik guruhlarini o'z ichiga olgan Shimoliy Xorazm o'zbeklari

guruhlaridan iborat. Bu zargarlik sohasida ham aks etgan bo‘lib, umuman Xorazm zargarlik buyumlarining asl qiyofasini belgilaydi.

6. XIX asrda bir vaqtning o‘zida Yevropa madaniyati, shu jumladan, rus va tatar zargarlik zeb-ziynatlari paydo bo‘ldi. Ko‘plab ishlab chiqariladigan arzon buyumlarda jo‘nlikka intilish hollari sodir bo‘la boshladi. Shu bilan birga, sovet davri hunarmandchilik taraqqiyotiga sovetlashtirish, ateistik siyosat, unifikasiyalash kabi mafkuraviy sabablar, shuningdek industrilashtirish, hunarmandlarning bitta korxonaga va bitta soha ostida birlashib ishlashi ham ta‘sir ko‘rsatdi. Sanoatlashtirish natijasida yangi zavod-fabrika mahsulotlarini ko‘plab keltirilishi va ishlab chiqarilishi nafaqat hunar turini, balki ishlab chiqarish mahsulotlarining shakli va sifatini ham o‘zgartirdi.

7. Xorazmdan topilgan qadimgi zargarlik buyumlari qadimgi jamiyatda ham estetik, ham marosimiy ahamiyatga ega bo‘lgan, himoya va baraka uchun ishlatilgan. Zargarlik buyumlarida, shuningdek, mahalliy xalqlarning an‘anaviy belgi (simvol)laridan foydalanish keng tarqalgan. Bular ko‘pincha kuch va himoya ramzlari sifatida ishlatiladi. Islom dini va madaniyatining tarqalishi bilan esa, Xorazmda diniy e‘tiqodlarga asoslangan estetik tamoyillar paydo bo‘ldi. Jumladan, islom madaniyatida keng tarqalgan ramzlar, masalan, *yulduz*, *hilol*, *bash barmoqli qo‘l* va boshqa diniy belgilardan foydalangan holda zargarlik buyumlari bezatilgan. Ushbu ramzlar diniy va ma‘naviy himoya vazifasini bajarib, Xorazmda diniy e‘tiqodlarni ifoda etgan.

8. Xorazm zargarlik bezaklari o‘zining turlari ko‘pligi, hashamdor bezalishi, ishlanish texnologiyasi bo‘yicha boshqa hududlardan keskin farq qiladi. *Uzuk*, *bilakuzuk*, *xalqa*, *aravak*, *tumor* kabi taqinchoqlar hamma davrlarda ham mavjud bo‘lib, XX asr boshlarigacha Xorazmda *tojduziy*, *duoduziy*, *manglayduziy*, *manotduziy*, *osmaduziy*, *kalitbog‘i*, *yarimtirnoq*, *butuntirnoq*, *bodomoy* kabi taqinchoqlar keng tarqalgan. Har bir buyum, undagi shakl va bezak ramziy ma‘nolarni ifodalagan.

9. O‘rta Osiyo xonliklaridagi kabi Xiva xonligida ham hunarmandlar orasida “usta” maqomi an‘anaga ko‘ra avlodlardan avlodga o‘tib kelgan, ammo hunarmand ustalarni tayyorlashda “ustoz-shogirdlik” maktabi alohida ahamiyat kasb etgan. XVI–XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining barcha hududlarida hunarmandchilik aholi xo‘jalik faoliyatining asosini tashkil etgan sohalaridan biri edi. Xonlikda hunarmandlarni tayyorlashga katta e‘tibor bilan qaraganlar. Bunda ularni tayyorlash borasidagi an‘analar katta ahamiyatga ega edi. Bu jarayonda ustalar muhim o‘rin tutganlar.

10. Hozirgi vaqtda turistik ob‘ektga aylantirilgan zargarlik ustaxonalarida bir qator muammo va kamchiliklar mavjud bo‘lib, ularning yechimi hali topilmagan. Shuningdek, logistika, infratuzilma, mehmonxonalar va ovqatlanish shaxobchalari yetishmasligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, turizm sohasining kadrlar salohiyatini oshirish bilan bog‘liq qator muammolarga yechim izlanmoqda. Qolaversa, turistik ob‘ektga aylantirilgan zargarlik ustaxonalari bo‘yicha boshlangan ba‘zi loyihalar hali yakuniga yetmagan.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

Xorazm viloyatda mavjud oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan voha hududida joylashgan zargarlik ustaxonalari va uyushmalari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir;

tadqiqot natijalari asosida Xorazmga zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi ustaxonalarni turistik ob'ektga aylantirish orqali O'zbekistonda sayyohlikni rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqib, zargarlik turizmni tashkil etishga asosiy e'tibor qaratish va bu yo'l bilan yangi turistik yo'nalishlar xaritasini ishlab chiqish hamda mamlakatimizda turizm salohiyatini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar barpo etish imkonini beradi;

O'zbekistondagi, xususan Xorazmdagi usta-zargarlar hayoti, zargarlik ustaxonalarining faoliyati haqida tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan madaniy-ma'rifiy, ilmiy ommabop dasturlarni hamda hujjatli film tayyorlash asnosida mamlakatimizda kinomotografiya sohasini yanada boyitish.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ХОРЕЗМСКАЯ АКАДЕМИЯ МАЪМУНА**

**БАҚДУРДИЕВА КУНДУЗ КУВОНДИК КИЗИ**

**ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В УЗБЕКСКОМ  
ТРАДИЦИОННОМ ЮВЕЛИРНОМ ДЕЛЕ  
(НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА)**

**07.00.07 – Этнография, этнология и антропология**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

**Нукус – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за В2024.2.PhD/Tar 1981.

Диссертация выполнена в Хорезмской Академии Маъмуна.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и Информационно-образовательного портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

Научный руководитель:

Маткаримова Садокат Максудовна  
доктор исторических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Давлатова Саодат Тиловердиевна  
доктор исторических наук, профессор.

Абидова Зайнаб Кадирберггановна  
доктор философских наук (PhD) по истории,  
доцент.

Ведущая организация:

Каракалпакстанское отделение Академии наук Республики Узбекистан Каракалпакский НИИ гуманитарных наук

Защита диссертации состоится «22» VII 2025 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230100, г. Нукус, улица Ч. Абдилова, №1. Исторический факультет Каракалпакского государственного университета. Тел.: (99361) 223-60-49; Факс: (361) 223-60-49; e-mail: e-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz))

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за № 330) (Адрес: 230100, г. Нукус, улица Ч.Абдилова, №1. Исторический факультет Каракалпакского государственного университета. Тел.: (99361) 223-60-49; Факс: (361) 223-60-49)

Автореферат диссертации разослан «07» VII 2025 года.  
(Протокол реестра за № 9 от «07» VII 2025 года).



**М.А. Карлыбаев**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор

**Х.М. Отегенов**  
Учёный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент

**Б.А. Кошанов**  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях интенсивной интеграции народов мира и процессов глобализации приоритетное значение приобретают осознание этнической и культурной идентичности, сохранение локальных культур и национальных ценностей, их исследование на научной основе. Одновременно можно наблюдать возрастание значения национального аспекта в общественно-политических процессах и резкое усиление интереса народов мира к своей истории и национальной культуре. Среди различных проявлений материальной культуры традиционное ювелирное дело является важной составляющей культуры, сочетающей духовную и культурную жизнь, а также эстетические взгляды.

В мировой антропологии и современных этнологических исследованиях традиционное ювелирное искусство как важный признак этнической культуры остается одним из приоритетных вопросов, отражающих представления о национальной самобытности, материальной и духовной жизни и окружающей среде. Соответственно, основное внимание уделяется изучению традиционных форм ювелирных изделий, их художественно-эстетического значения на основе исторических источников и социологических опросов, а также их адаптации к современным процессам глобализации. Вопрос материальной культуры народов Центральной Азии занимает центральное место в исследованиях, проводимых в ведущих научных центрах мира. Влияние социальных процессов на развитие форм ювелирных изделий народов Центральноазиатского региона, их отдельных деталей и аспектов бытования является одной из актуальных проблем.

Исследование проблем развития народного ювелирного искусства в условиях Нового Узбекистана, проведение историко-этнологических исследований и изучение культуры этноса приобретают важное значение с точки зрения сохранения наследия для будущих поколений. В условиях глобализации возрастает ценность традиционной культуры, воплощающей в себе основные ценности народа. Понимание истории, опыта народа, сущности традиций, культурных норм, стереотипов поведения, обычаев и религиозных верований питает духовные искания современного общества и служит руководством для его регулирования.

Традиционное ювелирное дело Хорезма является одной из важных составляющих как материальной, так и духовной культуры. Поэтому ювелирное дело представляет интерес не только для этнографов, но и для культурологов и искусствоведов, поскольку позволяет глубоко изучить их происхождение и развитие, основные особенности, присущие этой этнической группе, определить основные направления, которые могут дать толчок для новых исследований. Данное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Законе Республики Узбекистан от 30 августа 2001 года № 269-П “Об использовании и охране объектов материального культурного наследия”, Постановлении Президента

Республики Узбекистан от 15 февраля 2017 года № ПП-2778 “Об организации деятельности Управления культурного наследия при Министерстве культуры Республики Узбекистан”, Указе Президента от 17 ноября 2017 года № УП-5242 “О мерах по дальнейшему развитию ремесленничества и всесторонней поддержке ремесленников”, Постановлении Президента от 17 ноября 2017 года № ПП-3393 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности ассоциации “Хунарманд”, Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2018 года № ПП-4038 “Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан”, Указе Президента от 28 ноября 2019 года № УП-4539 “О дополнительных мерах по дальнейшему развитию ремесленничества и поддержке ремесленников”, Указе Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2020 года № УП-6000 “О мерах по повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества”, Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Исследование выполнено в соответствии с программным направлением развития науки и технологий республики “Формирование системы социальных, правовых, экономических, инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации”.

